

9-sinf. O'zbek tili (Davlat tili)

BSB-1 (20 ball)

Topshiriqli diktant

Aziz tengdoshim! Vatan nima ekanini, uni hayotimizning qaysi nuqtasida his qila olishimiz va unga mehr qo'yishimiz haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? "Ko'z ochib ko'rgan yurtim", "Kindik qonim to'kilgan tuproq" degan ko'plab ta'riflarni eshitganmiz. Aslida Vatan nima?

Bilasizmi, men uchun Vatan - ilk bor bag'riga olgan ona Zamin. Hatto nafas olayotganimni his etuvchi tirik hilqat. Ha, hatto u mening o'ylagan o'ylarimni biladi va menga mehr ko'rsatadi. Istaklarimni sezgani uchun ham keng imkoniyatlar beradi. Menga bergan mehriga, imkoniyatlariga sadoqatim bilan javob qaytarishim kerak. Siz-chi, do'stim? Vatanga qanday xizmat qilmoqchisiz?

BSB-1 bo'yicha amaliy topshiriqlar:

1. Matndan shaxsi ma'lum gaplardan 2 tasini topib yozing. (2 ball)
2. Vatanga qisqa ta'rif yozing. (3 ball)
3. Istaklarimni sezgani uchun ham keng imkoniyatlar beradi. Ushbu gapning shaxsini toping. (3 ball)
4. Matn mazmuniga mos keluvchi shaxsi umumlashgan gap yozing. (2 ball)

Har bir to'liq bajarilgan topshiriq uchun belgilangan 2-3 ball, jami 10 ball.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarda o'zbek tilini o'qitishda o'quvchilarning o'zbek tilidagi so'zlarning to'g'ri yozilishi, grammatik vositalarning so'zlarga qo'shilishi bilan bog'liq imlo qoidalarini bilishlari va ushbu qoidalarga amal qilishlari zarurligi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olishlari zarurligi hisobga olingan.

Diktantni baholashda quyidagi mezon belgilanadi:

№	Baholash mezonlari	Ball
		10
1	matn husnixat bilan yozilgan, imlo xatolarsiz, yoki 3 tagacha imloviy, 3 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	10
2	matn husnixat bilan yozilgan, imlo xatolar soni 4 tagacha, ishoraviy xatolar 4 tagacha bo'lsa;	9
3	matn imlo qoidalariga asosan yozilgan, 5 tagacha imlo xatolar, 5 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	7-8
4	matn imlo qoidalariga asoslanib yozilmagan, 7 tagacha imlo xatolar, 7 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	5-6
5	matn imlo qoidalariga asoslanib yozilmagan, 9 tagacha imlo xatolar, 9 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	3-4
6	matn imlo qoidalariga asoslanib yozilmagan, 10 tagacha imlo xatolar, 10 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	1-2
7	imlo xatolar soni 12 va undan ortiq bo'lganda diktant baholanmaydi yoki 0 qo'yiladi	0

● **Eslatma:**

1. Diktantda xatolar soni har xil bo'lsa, baholashda imloviy xatolar soniga qaraladi.
2. Tuzatishlar soni 5 tadan oshsa 1 ball pasaytiriladi.
3. Diktantda bir so'zdagi xato takror uchrasa 1 xatoga hisoblanadi.

- **Ogohlantirish:** o'quvchi **diktantni** xatosiz yozgan bo'lsa, lekin husnixati talab darajasida bo'lmasa 1 ball olib tashlanadi.

Maktab:	
Sinf:	9__
Fan:	O'zbek tili
Sana:	
Nazorat ishi:	Topshiriqli diktant
Maqsadi:	BSB-1
Chorak:	I

O'quvchining F.I _____

To'plagan bali _____

Fan o'qituvchisi : _____

Jami ball: 10 ball

4. Matn mazmuniga mos keluvchi shaxsi umumlashgan gap yozing. (2 ball)
